

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTINING FARG'ONA MINTAQAVIY FILIALI

PEDAGOGIKADA
ILMIY
IZLANISHLAR

ISSN 2992-9237

ILMIY JURNAL

2-TO'PLAM 1-SON
MART 2024

QQ'QON

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTINING
FARG‘ONA MINTAQAVIY FILIALI

PEDAGOGIKADA ILMIY IZLANISHLAR

ISSN 2992-9237

ILMIY JURNAL

VOLUME 2 ISSUE 1 / MART 2024

QO‘QON

Editor in chief

Gapurov Mirmuxsin Kamoldinovich

Associated Professor

Executive Secretary

Turgunbaev Rashid Muxtorovich

Corrector

Asqarova Munajat Husanovna

Editorial board

Z.Kholmatova

Namangan State University, Doctor of

Philosophy in Pedagogical Sciences

I.Kirgizov

Candidate of Pedagogical Sciences, Fergana

State University

M.Bashmanov

Fergana Regional Branch of Uzbekistan State

Institute of Arts and Culture, Candidate of

Pedagogical Sciences, Associate Professor

I.Habibjonov

Fergana Regional Branch of Uzbekistan State

Institute of Arts and Culture, Doctor of

Philosophy in Philology (PhD)

B.Shamsiddinov

Kokand State Pedagogical Institute, Doctor of

Philosophy (PhD)

E.Qabilova

Kokand State Pedagogical Institute, Associate

Professor

M.Umarova

Kokand State Pedagogical Institute, Associate

Professor

A.Ziyayev

Kokand State Pedagogical Institute, Associate

Professor

M.Khushnazarova

Kokand State Pedagogical Institute, Associate

Professor

A.Sattarov

Fergana regional branch of Uzbekistan State

Institute of Arts and Culture

B.Kadirov

Kokand State Pedagogical Institute, Doctor of

Philosophy (PhD)

Z.Ernazarov

Kokand State Pedagogical Institute, Doctor of

Biological Sciences (PhD)

Bosh muharrir

G'apurov Mirmuxsin Kamoldinovich

Dotsent

Mas'ul kotib

Turg'unboev Rashid Muxtorovich

Musahhix

Asqarova Munajat Husanovna

Tahririyat

Z.Xolmatova

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

I.Kirgizov

Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika

fanlari nomzodi

X.Usmonova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

instituti Farg'ona viloyat filiali, Pedagogika

fanlari nomzodi, Dotsent

I.Habibjonov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

instituti Farg'ona viloyat filiali, Filologiya

fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

B.Shamsiddinov

Qo'qon davlat pedagogika instituti, Falsafa

fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E.Qobilova

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

Dotsent

M.Umarova

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

Dotsent

A.Ziyayev

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

Dotsent

M.Xushnazarova

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

Dotsent

A.Sattarov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

B.Qodirov

Qo'qon davlat pedagogika instituti, Falsafa

fanlari bo'yicha falsafa doktori

Z.Ernazarov

Qo'qon davlat pedagogika instituti, Biologiya

fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ta'sischi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

TABLE OF CONTENTS / MUNDARIJA

1.	Nozimaxon Ahmedova, M.M.Qurbonova MUSIQA MAKTABLARIDA DUTOR SINFI UCHUN YARATILGAN O‘QUV ADABIYOTLAR TAHLILI	5
2.	Barhayotjon Sobirjonovich Qodirov YANGI O‘ZBEKISTONDA TA‘LIM KLASTERINING NAZARIY ASOSLARI	9
3.	Azizbek Taslimboyev, Umidaxon Boltaboyeva BARKAMOL AVLODNI AQLIY, AXLOQIY, JISMONIY VA ESTETIK TARBIYALASHDA BOLALAR O‘YINLARINING AHAMIYATI	13
4.	Sultonov Dostonbek, R.Zununov BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQA FANINI O‘QITISH METODIKASI	17
5.	Roziyabonu Abdusalom kizi Khasanboyeva, Otabek Rustambek oglu Anvarov THE HEART OF A WORK OF ART IS THE ENVIRONMENT	21
6.	E.Qobilova MUSIQA ONG VA HISLAR O‘RTASIDAGI VOSITACHIDIR	28
7.	Sug‘diyona Nodirbek qizi Valijonovna, R.Utaganov KICHIK YOSHDAGI BOLALAR BILAN RAQS MASHG‘ULOTLARI OLIB BORISHNING ENG MUHIM TARTIB VA TALABLARI	32

MUSIQA MAKTABLARIDA DUTOR SINFI UCHUN YARATILGAN O'QUV ADABIYOTLAR TAHLILI

Nozimaxon Ahmedova

Ilmiy rahbar: M.M.Qurbonova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda san'at va madaniyatga bo'lgan e'tibor, musiqa va san'at maktablarida dutor sinfida keng qo'llaniladigan qo'llanma va darsliklaridan ayrimlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qo'llanma, cholg'u, dutor, san'at va madaniyat, ijrochilik, uslub

ANALYSIS OF CURRICULUM LITERATURE CREATED FOR THE CLASS OF MUSIC SCHOOLS

Nozimakhon Akhmedova

Scientific leader: M.M.Qurbonova

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: The article analyzes the attention to art and culture, some of the manuals and textbooks that are widely used in music and art schools.

Keywords: manual, instrument, tutor, art and culture, performance, style

Xalqimiz qadimdan musiqaga va qo'shiqqa o'z hayotining muhim bir bo'lagi sifatida qaragan. Har bir o'zbek xonadonida albatta bitta cholg'u bo'lgan. Ota-onalar farzandlari musiqa sozini chala olishini, san'at bilan hamnafas yashashini juda hoxlashgan. Zero, musiqa inson ruhiga ta'sir qila oladigan omillardan biridir. Shuning uchun ham xalqimiz orasida "Musiqani sevgan insondan yomonlik chiqmaydi" degan bir fikr yuradi. Haqiqatdan ham san'at bilan, ijod bilan yashaydigan inson atrofdagilardan butunlay o'zgacha dunyoqarashi bilan, fikrlari bilan ajralib turadi.

Respublikamizda bunyodkorlik ishlari bilan bir qatorda, madaniyat, ma'naviyat va san'at sohalarida ham salmoqli o'zgarishlar yuz bermoqda. Prezidentimiz ayniqsa, yosh avlodni har tomonlama sog'lom, bilimli, madaniyatli va barkamol shaxs bo'lib yetishishi, ma'naviy boy va keng dunyoqarashga ega bo'lishiga katta e'tibor qaratib kelmoqda.

Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida bir nechta qarorlar qabul qilindi. Xususan: "Musiqsa sa'ati bo'yicha professional ta'lim hamda oliy ta'lim to'g'risidagi hujjatga ega bo'lgan, kamida 3 ta milliy musiqa cholg'ularida mahorat bilan kuy ijro eta oladigan mutaxassisni asosiy

ish joyidan bo'sh vaqtida u yerdagi mehnatga haq to'lash shartlarini saqlab qolgan holda, o'rindoshlik asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari musiqa fani o'qituvchisi va musiqa yo'nalishidagi to'garak rahbari lavozimiga to'liq stavkada ishga qabul qilishga ruxsat beriladi." [1]

Qadimdan bizgacha yetib kelgan milliy cholg'ularimiz va musiqamizning ajoyib namunalari bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan, aksincha, tobora qiymati avvalgidan-da oshib bormoqda. Milliy cholg'ularimiz va musiqamizni targ'ib qilish, uni saqlash hozirgi kunda dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Dutor Markaziy Osiyo xalqlari: o'zbeklar, tojiklar, turklar, uyg'urlar va boshqa ko'plab xalqlar orasida keng tarqalgan cholg'ulardan biri hisoblanadi. Musiqiy ta'lim qadimdan ustoz-shogird an'alariga asoslangan holda bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ustozlarning shu yo'nalishida olib borgan pedagogik uslublari natijasida ko'plab o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratilgan.

1977-yilda M.A. Asilov, F.M. Vasilyevlarning "Dutor darsligi" kitobi dutor sinfi dars berish amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan adabiyotlardan biri hisoblanadi. Unda cholg'uni to'g'ri tutish, boshlang'ich musiqa nazariy bilimlar, dutor zarblari aniq va tushunarli qilib keltirilgan.

1987-yilda yozilgan G'.Qo'chqorovning "Dutor sadolari" kitobi 4000 nusxada chop etilgan. Bu to'plam asosan 2-5 dutor sinfi o'quvchilari hamda bilim yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan. Kitobda dutorga xos turli zarblar, ijrochilik uslublari: qochirim, nola kabi musiqiy bezaklarni o'rganishni uslublari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan

G.M. Muhamedovaning 2005-yilda yaratilgan "Dutor darsligi" o'quv qo'llanma kitobida ham dutor cholg'usining tuzilishlari, sozlanishlari, ijrochilikning umumiy qoidalari, o'ng va chap qil vazifalari, musiqada ishlatiladigan shartli belgilar aniq va tushunarli holda keltirilgan. "Ijrochilik mahoratini o'ng va chap qo'llar va barmoqlarni mutanosib tarzda harakatlantirish, musiqani his qilib, erkin harakat ettirish natijasidir. Ritmik tovushlardan tuzilgan gammalarga tovush kuchini oshiruvchi hamda pasaytiruvchi dinamik tuslar berib chalishning ahamiyati kattadir". [2.9]

Dutor ijrochiligi XX-XXI asrdan boshlab rivojlana boshlagan. Dutor chalishning turli xil uslublari asta- sekin ishlab chiqarila boshladi. Uslublar haqida aytilganda, Xorazm dutor maktablarini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Bundan tashqari Qo'qon dutor ijrochilik maktabining an'analari ham alohida ajralib turadi. Har bir uslubning ham o'ziga xos tomoni bo'ladi. Masalan, Xorazm uslubida o'ng qo'l zarblari rez ustidagi uzluksiz davomiy ijrosi bilan boshqa uslablardan farq qiladi. Farg'ona-Toshkent dutor ijrochiligi uslubi esa har bir dutorchining shaxsiy uslublari borligi bilan farq qiladi. Aynan Xorazm uslubi va Farg'ona-Toshkent uslublari o'ld ham juda ko'plab o'quv qo'llanmalar nashr qilingan.

“O‘zbekistonda dutor azaldan sevimli va ardoqli cholg‘u hisoblanadi, ayniqsa, Xorazm vohasida juda keng tarqalgan bo‘lib, Alovuddin Sulton Muhammad Xorazmshoh davrida Yusuf Dutori, keyinchalik esa Xo‘janazar Kurd, Bobojon Miton, Avaz Dorchi, Yoqub dorchi, Muhammad Sharif-Qambar bobo va boshqa juda k o‘plab mashhur ijrochilarning nomlari tarixdan bizga ma‘lum. Faqat Xorazmdagina 11 ta dutor maqomlari yaratilgan.” [3.3]

Ulug‘bek Yunusovning 2021-yilda chop etilgan "Xalq cholg‘ularida ijrochilik" (dutor) nomli qo‘llanmasida boshqa qo‘llanmalardan farqli o‘laroq, eng avvalo dutorni to‘g‘ri tutish, qo‘llar joylashuvi, dutorning dastlabki holatiga chuqur e‘tibor qaratilgan. Ya‘ni, ijro mahoratini oshirishda postanovkaning ahamiyatiga alohida to‘xtalgan. Qo‘llanmaning boshqa qo‘llanmalardan ustunlik jihati ham shunda. Negaki, dutor sinfiga yangi kelgan o‘quvchi dutor chalishning ilk saboqlarini o‘rganayotgan paytda, eng avval dutorni qanday ushlashni, o‘tirish qoidasini mukammal o‘rganishi kerak. Agarda o‘qituvchi bunda biror xatolikka yo‘l qo‘ysa yoki biroz e‘tibordan qochirsa, noto‘g‘ri o‘tirish holati hosil bo‘ladi va o‘quvchi bunday holatga moslashib qoladi. Ya‘ni bunda dutor dastasini noto‘g‘ri holatda ushlash, gavdadan oldinga yoki aksincha, orqaga chiqarish, tirsak holati kosadan pastga tushib ketishi va boshqa turli holatlar yuzaga kelib qoladi. U.Yunusov ham aynan ushbu masalani keng ko‘lamda yoritib ketgan.

“Ijrochi-sozanda dutorda ijro etishni o‘rganishni boshlagan ilk kunlaridan boshlab, tovush hosil qilish uchun uni ijro madaniyatini rivojlantirishi lozim. Dutor cholg‘usidagi ijro uslublari turli xil bo‘lib, ularni sozanda ajrata bilishi hamda ijrosini eshitib, farqlay olishi zarurdir. Insonning nutqi kabi, musiqiy asar alohida ma‘nolarga ega bo‘lgan jummalardan iboratdir.” [4.7]

Yana bir qo‘llama Shavkat Rahimovning 2010-yilda nashr qilingan “Cholg‘u ijrochiligi” nomli kitobida dutor chalishning yangi va asosiy ijro belgilari yoritganligi, musiqiy atamalarga alohida izoh keltirilganligi bilan ajralib turadi. Bunda dutor zarblarining har biriga nom berilgan va ularni qanday o‘rganish uslubiy bayon qilinadi. Darslikda nazariy qismdan tashqari, 4 ta qismdan tashkil topgan. Nazariy qismida nota haqida turli ma‘lumotlar batafsilroq va sodda tilda yomusiqa tovushlari yoritilgan.

“Bizning nutqimizdagi tovushlar harflar bilan yozib o‘qilganidek, musiqa tovushlari ham nota bilan yozilib, ijro etiladi (chaliladi). Nota chiziqlari pastdan yuqoriga qarab sanaladi. Bundan tashqari qo‘shimcha chiziqlar chizilib, notalarni pastga va yuqoriga davom ettirish mumkin.” [5.5]

Har qanday o‘quv qo‘llanmada ham o‘ziga yarasha yutuq va kamchiliklari bo‘ladi, albatta. Aslida buni kamchilik deb atash ham biroz noo‘rin. Negaki har bir o‘qituvchining, muallifning, umuman, har bir insonning o‘ziga yarasha o‘qitish uslubi, o‘ziga xosligi mavjud bo‘lib, hech kim bir-birini takrorlay olmaydi. Yuqorida

keltirilgan qo‘llanmalardan har bir san’atkor o‘zi uchun qandaydir foydali ma’lumot olishi shubhasiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, o‘quv qo‘llanma yoki o‘qitish metodi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, muhimi u amaliyotda o‘zini oqlashi, ya’ni, ko‘plar uchun foydali bo‘la olishi, o‘quvchini mehrini uyg‘ota olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi PQ-112 “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risida.
2. G. Muhamedova “Dutor darsligi” 2005.
3. F. Mo‘minova. “Xorazm dutor taronalari”. Toshkent 2013.
4. U. Yunusov “Xalq cholg‘ularida ijrochilik”. Musiqa., Toshkent 2021.